Bu ko'rsatkichlar muammoni boshqacha qo'yishni talab qiladi: masala o'quvchida fikrlashga moyillikning mutlaqo mavjud yoki mavjud emasligida emas, balki mavjud fikrlash faolligini ijodiy faoliyatga aylantira oladigan ta'lim mexanizmlarining qay darajada tizimlashtirilganida bo'lishi mumkin. O'quvchining savol berishi-hali ijodiy yechim emas; turli nuqtayi nazarni hisobga olishi-hali yangi g'oya yaratish emas. Pedagogik tizim aynan shu oraliqni to'ldirishi, ya'ni "savol berish"dan "g'oya yaratish"ga, "g'oya"dan "yechim"ga, "yechim"dan esa "yangi pedagogik mahsulot"ga olib boradigan faoliyatni tashkil etishi kerak.

Shu nuqtada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi darsni o'zi ijodiy loyihalay olmagan pedagogdan o'quvchida yuqori darajadagi ijodiy fikrlashni shakllantirishni kutish metodik jihatdan ziddiyatli holatdir. O'qituvchi tayyor topshiriqni bajarishga o'rgatilgan bo'lsa, u ko'pincha o'quvchidan ham yagona "to'g'ri javob"ni kutadi; o'qituvchining o'zi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bir nechta variant yaratish va ularni baholashga o'rgatilgan bo'lsa, u bunday faoliyatni dars jarayoniga tabiiy ravishda olib kira oladi. Shuning uchun o'qituvchining ijodiy tafakkuri o'quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmining tashqi emas, ichki komponenti sifatida qaralishi lozim.

Mamlakatimiz ta'lim siyosatida ham ta'lim sifatini, pedagogik kadrlar tayyorgarligini va zamonaviy kompetensiyalarni kuchaytirishga yo'naltirilgan islohotlar izchil davom etmoqda. Xususan, 2022-yil 11-maydagi PF–134-son Farmon bilan 2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlangan bo'lib, mazkur yo'nalish keyingi ta'lim islohotlari bilan uzviy davom ettirilmoqda^[5]. 2023-yilda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi davlat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan PQ–200-son qarorning qabul



qilinishi ham oliy ta'limning yangi bosqichdagi vazifalarini belgilab berdi ^[5]. Bu hujjatlar nuqtayi nazaridan qaralganda, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida faqat nazariy bilimlarni yetkazish emas, balki ta'limning o'zgaruvchan ehtiyojlariga mos keladigan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi tobora muhimlashmoqda.

Masalaning yana bir yangi qatlami-sun'iy intellektning o'qituvchi faoliyatiga kirib kelishidir. UNESCO 2024-yilda o'qituvchilar uchun AI kompetensiyalari bo'yicha global frameworkni e'lon qilib, 15 ta kompetensiyani besh yo'nalishda: inson markazli tafakkur, AI etikasi, AI asoslari va qo'llanilishi, AI pedagogikasi hamda kasbiy rivojlanish yo'nalishlarida belgiladi. Eng e'tiborli jihati shundaki, kompetensiyalar "Acquire-Deepen-Create", ya'ni "egallash-chuqurlashtirish-yaratish" bosqichlarida qurilgan ^[1].

Bu yondashuv bizning tadqiqotimiz uchun muhim metodologik xulosaga olib keladi: kelajak o'qituvchisini texnologiyadan foydalanuvchi qilib tayyorlashning o'zi yetarli emas; u texnologiya yordamida yangi pedagogik yechimlarni yarata oladigan mutaxassisga aylanishi kerak. UNESCOning o'qituvchilar uchun frameworkida ham AI pedagogikasi doirasida o'qituvchining ochiq izlanish, loyiha asosida ta'lim, tanqidiy fikrlash, kreativlik va inson-AI hamkorligiga asoslangan yangi pedagogik ssenariylarni ishlab chiqish qobiliyatiga urg'u beriladi ^[1].

Xulosa qilib, mavjud ilmiy va amaliy holatda bir-biridan alohida ko'rib chiqilayotgan uchta masala kesishmoqda:

birinchisi – ijodiy tafakkurni rivojlantirish muammosi;

ikkinchisi – bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi;

uchinchisi – raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida pedagogik faoliyatning o'zgarishi.

Ularning har biri bo'yicha ilmiy izlanishlar mavjud. Biroq aynan shu uch yo'nalishni bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit innovatsion-pedagogik tizim sifatida birlashtirish masalasi yetarlicha ochib berilmagan.

Aynan mana shu nuqta tadqiqotimizning ilmiy bo'shlig'ini belgilaydi. Mavjud tadqiqotlarning bir qismi ijodkorlikning psixologik tarkibini o'rganadi, boshqa qismi kreativ metodlar yoki texnologiyalarning ta'limdagi imkoniyatlarini ko'rsatadi, yana bir qismi raqamli kompetensiyalar va AI savodxonligiga e'tibor qaratadi. Ammo bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ijodiy tafakkurini shakllantirishni maqsad, mazmun, metod, innovatsion vosita, pedagogik shart-sharoit, mustaqil ijodiy faoliyat, refleksiya va diagnostika o'rtasidagi uzviy aloqaga asoslangan tizim sifatida modellashtirish masalasi alohida ilmiy muammo sifatida qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotning dolzarbligi shunchaki "ijodkorlik zamonaviy ta'lim uchun muhim" degan umumiy fikr bilan izohlanmaydi.

Dolzarbligni uchta aniq fakt belgilaydi: birinchidan, xalqaro baholash O'zbekistonda ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha sezilarli muammo mavjudligini ko'rsatmoqda; ikkinchidan, raqamlashtirish va sun'iy intellekt pedagogning kasbiy rolini o'zgartirmoqda; uchinchidan, bu o'zgarishlarga mos pedagogni tayyorlash uchun kreativlikni alohida mashqlar yig'indisi emas, balki tizimli kasbiy kompetensiya sifatida shakllantirish zarurati kuchaymoqda.

Kelajak ta'limini aynan qanday texnologiya yoki metod egallashini oldindan to'liq aytish qiyin. Ammo bir narsa aniq: texnologiya qanchalik rivojlanmasin, o'qituvchidan muammoni ko'ra olish, savol qo'yish, pedagogik vaziyatni tahlil qilish, muqobil yechimlarni yaratish, o'quvchining mustaqil fikrini qo'llab-quvvatlash va yangi sharoitga moslasha olish talab qilinadi. Demak, bugun bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisida rivojlantiriladigan ijodiy tafakkur aslida faqat bugungi maktab uchun emas, hali shakli to'liq ma'lum bo'lmagan kelajak ta'limi uchun tayyorgarlik vositasi hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotimizda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimini ishlab chiqish va uning pedagogik imkoniyatlarini asoslash maqsad qilib olindi. Mazkur tizim talabaning ijodiy tafakkurini nazariy bilim bilan cheklamasdan, uni muammoni aniqlash, savol qo'yish, g'oya generatsiyasi, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, raqamli vositalardan ijodiy foydalanish, natijani tanqidiy baholash va refleksiv takomillashtirish kabi o'zaro bog'liq faoliyatlar orqali rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shu jihatdan tadqiqot mavjud kreativ metodlarni takrorlashdan ko'ra, ularni yagona pedagogik mexanizmga birlashtirishga qaratilganligi bilan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar uyg'unligiga tayanadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ijodiy tafakkuri mustaqil fikrlash, g'oya yaratish, muqobil yechimlarni izlash, pedagogik vaziyatni yangicha talqin qilish va qaror qabul qilish bilan bog'liq yaxlit sifat sifatida qaraladi. Tadqiqotda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik mazmuni va mexanizmlarini ochib berish uchun ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish va konseptual loyihalash metodlaridan foydalanildi.



Shuningdek, zamonaviy ta'lim tendensiyalari, kreativlik konsepsiyalari hamda pedagogik innovatsiyalar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion-pedagogik tizimning tarkibiy tuzilishi va rivojlanish mexanizmi asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishni alohida bir metod yoki bir nechta kreativ topshiriqlarni qo'llash bilan izohlash yetarli emas. Chunki ijodiy tafakkur bir martalik mashq natijasida emas, balki talabaning ta'lim jarayonidagi doimiy faoliyati, muammoli vaziyatlarga munosabati, mustaqil qaror qabul qilishi, yangi g'oya ishlab chiqishi va o'z yechimini qayta ko'rib chiqishi orqali shakllanadi.

Davlatimiz ta'lim tizimining amaldagi me'yoriy asoslari ham bunday yondashuv uchun yetarli zamin yaratadi. "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonun ta'lim tizimining umumiy huquqiy asoslarini belgilab beradi [6]. 2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturda esa pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar asosida tayyorlash, pedagogika yo'nalishlari o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish hamda amaliyot bilan bog'lash vazifalari belgilangan [7]. Xususan, mazkur hujjatda pedagog kadrlarni tayyorlashda "4+2" amaliyot modelini joriy etish, talabalarni maktablarda amaliy faoliyatga jalb qilish va ularning ilmiy-tadqiqot hamda kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan [7]. Demak, mavjud tizimda bo'lajak o'qituvchini faqat auditoriyada nazariy bilim bilan qurollantirishdan amaliy kasbiy faoliyatga olib chiqish uchun tashkiliy asos mavjud.

Biroq bu yerda muhim farq bor: amaliyotning mavjudligi hali ijodiy tafakkurning shakllanganligini anglatmaydi. Talaba maktab amaliyotiga chiqishi, dars kuzatishi yoki dars o'tishi mumkin, lekin agar undan muammoli pedagogik vaziyatga bir nechta yechim taklif qilish, nostandart topshiriq yaratish, o'quvchining kutilmagan javobini pedagogik imkoniyatga aylantirish yoki mavjud darsni qayta loyihalash talab qilinmasa, amaliyot reproduktiv xarakterda qolib ketishi mumkin. Shu jihatdan amaliyotning o'zini ijodiy faoliyatga aylantirish masalasi alohida metodik mexanizmni talab qiladi. Mazkur fikr xalqaro tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanadi.

OECD tomonidan PISA 2022 doirasida 90 ta ta'lim yurisdiksiyasining ijodiy tafakkurni ta'lim tizimiga integratsiya qilish holati o'rganilgan. Tahlilda kreativlikni faqat o'quv dasturiga kiritishning o'zi yetarli emasligi, dasturiy maqsadlar bilan bir qatorda boshlang'ich pedagogik tayyorgarlik, malaka oshirish, baholash va o'qituvchilar uchun metodik resurslar ham o'zaro muvofiqlashtirilishi kerakligi ko'rsatilgan [11]. Shu sababli biz taklif qilayotgan tizimning asosiy g'oyasi ham aynan "kreativlikni o'rgatish" emas, balki kreativlikni ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlariga singdirishdan iborat.

O'zbekistonning 2023-yildagi "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, yangi avlod darsliklari, metodik qo'llanmalar va multimedia dasturlarini yaratish, pedagoglarning malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, 500 ming nafar pedagogning uzluksiz malaka oshirishini ta'minlash, oliy ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish kabi maqsadlar belgilangan [8]. Bu vazifalar ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun faqat texnik imkoniyatlar emas, balki pedagogik mazmunni ham yangilash zarurligini ko'rsatadi.

2026-yil 25-fevraldagi 75-son buyruq bilan tasdiqlangan oliy ta'limning yangi davlat ta'lim standarti ham oliy ta'lim yo'nalishlarini jamiyat va shaxsning amaldagi hamda istiqboldagi ehtiyojlari, mehnat bozoridagi yangi talablar va, ayniqsa, innovatsion texnologiyalar rivoji bilan bog'lashni nazarda tutadi [9]. Hujjatda "Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat yo'nalishi 60110400, uning negizidagi "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)" magistratura mutaxassisligi esa 70110401 sifatida belgilangan [9]. Bu holat bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini kelajakdagi ta'lim muhitiga tayyorlash masalasini yanada aniqroq qo'yishga imkon beradi.

Innovatsion-pedagogik tizimning tarkibiy tuzilishi

Taklif etilayotgan tizimni shartli ravishda yetti o'zaro bog'langan komponentga ajratish mumkin. Ularning birortasi ikkinchisidan mustaqil ishlamaydi. Masalan, kreativ topshiriq berilib, lekin talaba uning nima uchun berilganini tushunmasa, kutilgan natija yuzaga kelmaydi. Xuddi shuningdek, yangi metodlardan foydalanilib, ijodiy natija baholanmasa, rivojlanish dinamikasini aniqlash qiyinlashadi.

1-jadval: Innovatsion-pedagogik tizimning tarkibiy tuzilishi

Tizim komponenti	Asosiy mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
Maqsadli	Ijodiy tafakkurni kasbiy-pedagogik kompetensiya sifatida shakllantirish	Maqsadlarni ijodiy fikrlash natijalari bilan bog'lash
Diagnostik	Talabaning mavjud ijodiy imkoniyatlarini aniqlash	Muammoli topshiriq, ochiq savol, pedagogik vaziyat va o'z-o'zini baholash
Mazmuniy	Kreativlik, pedagogik innovatsiya, muammoli ta'lim va raqamli pedagogika mazmunini birlashtirish	Fanlar va amaliyot mazmuniga ijodiy vazifalarni kiritish



Texnologik	Muammoli, loyiha, design thinking, brainstorming, SCAMPER, case va interfaol metodlardan foydalanish	"Muammo–g'oya–yechim–sinov–takomillashtirish" sikli
Ijodiy muhit	Erkin fikr, xatodan qo'rqqanlik, turli javoblarni qabul qilish	Hamkorlik, munozara, guruhli ish va ochiq topshiriqlar
Raqamli-innovatsion	Raqamli vositalardan yangi pedagogik mahsulot yaratishda foydalanish	Multimedia dars, interaktiv topshiriq, vizual material va AI yordamida g'oya ishlab chiqish
Refleksiv-dagnostik	O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish	Refleksiya, portfolio, mezonli baholash va qayta ishlash

Bu komponentlarning ichida mazmuniy va texnologik komponentlar ayniqsa muhim. Chunki talabning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun faqat "kreativlik" haqida nazariy ma'lumot berish kamlik qiladi. U o'zlashtirgan bilimni amalda ishlatishi kerak. Masalan, talabaga "boshlang'ich sinfda o'qish darsini qanday tashkil etasiz?" degan an'anaviy savol berish o'rniga "o'quvchilarning yarmi matn mazmunini tushunmayapti, lekin dars tugashiga 15 daqiqa qoldi. Vaziyatni kamida uch xil usulda hal qiling va eng maqbul variantni asoslang" kabi ochiq pedagogik vaziyat beriladi. Bunda bitta tayyor javob emas, bir nechta asoslangan yechim talab qilinadi. Aynan mana shu nuqtada reproduktiv faoliyat ijodiy faoliyatga aylanadi.

Tizimni amalga oshirish mexanizmi

Tizimning ishlash mexanizmini "diagnostika - muammolashtirish - g'oya yaratish - yechimni loyihalash - sinab ko'rish - baholash - refleksiya - qayta loyihalash" ketma-ketligida ko'rish mumkin. Ushbu sikl chiziqli emas, balki qayta aloqa asosida ishlaydi. Talaba o'z yechimini baholagandan so'ng oldingi bosqichga qaytishi va uni takomillashtirishi mumkin.



1-rasm: Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimi modeli



Birinchi bosqich – diagnostik-yo'naltiruvchi bosqich. Unda talabani tayyor bilimini emas, balki noaniq vaziyatda qanday fikrlashi aniqlanadi. Masalan, "ushbu darsni qanday o'tkazish kerak?" degan savoldan ko'ra "ushbu darsda o'quvchi kutilgan javobni bermasa, qanday uchta yangi pedagogik yo'lni taklif qilasiz?" kabi topshiriqlar ijodiy tafakkurning real holatini yaxshiroq ochib beradi.

Ikkinchi bosqich – muammolashtirish. Bu bosqichda talaba tayyor yechimni olmaydi. Aksincha, pedagogik muammo ataylab to'liq bo'lmagan yoki bir nechta yechimga ega shaklda beriladi. Muammoli ta'limning kuchli tomoni ham shunda: talaba javobni eslab qolmaydi, balki javobni o'zi izlaydi. OECD tadqiqotlarida ham o'quvchiga original javoblar yaratish, o'z g'oyalarini ifodalash va ijodiy yechimlarni izlash imkonini beradigan pedagogikalar ijodiy tafakkur bilan ijobiy bog'liqlik ko'rsatgani qayd etilgan^[12].

Uchinchi bosqich – g'oyalar generatsiyasi. Bu yerda brainstorming, SCAMPER, klaster, analogiya, "agar shunday bo'lsa-chi?" savollari, assotsiativ xaritalar va boshqa kreativ texnikalardan foydalaniladi. Muhim jihat shundaki, talaba birinchi kelgan javob bilan cheklanmaydi. Undan kamida 3–5 ta variant ishlab chiqish, ularni kuchli va zaif tomonlari bo'yicha solishtirish talab qilinadi. Shunday qilib, ijodiy tafakkurning ravonlik va moslashuvchanlik jihatlari bir vaqtda ishga tushadi.

To'rtinchi bosqich – pedagogik loyihalash. G'oya endi oddiy fikr holatida qolmaydi. Talaba uni dars ishlanmasi, topshiriq, didaktik o'yin, vizual material, mini-loyiha, raqamli resurs yoki pedagogik ssenariyga aylantiradi. Bu bosqichda kreativlik kasbiy faoliyat bilan bog'lanadi. Masalan, "boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga qiziqishni oshirish" umumiy g'oyasi konkret pedagogik mahsulot-interaktiv topshiriq, hikoya asosidagi o'yin, raqamli kartochka yoki loyiha topshirig'iga aylantiriladi.

Beshinchi bosqich – sinov va qayta ishlash. Talaba yaratgan mahsulotini boshqa talabalar oldida himoya qiladi yoki pedagogik vaziyatda qo'llab ko'radi. Boshqa ishtirokchilar esa "nima yaxshi ishladi?", "qayerida muammo bor?", "yana qanday variant bo'lishi mumkin?" kabi savollar orqali fikr bildiradi. Bu jarayon ijodkorlikni tanqidiy fikrlash bilan bog'laydi. Chunki haqiqiy ijodkorlik faqat yangi g'oya yaratish emas, balki yaratilgan g'oyaning sifatini ko'ra olish va uni yaxshilashni ham talab qiladi.

Oltinchi bosqich – refleksiya. Talaba o'z faoliyatiga "men nima qildim?" degan savol bilan emas, "nega aynan shu yechimni tanladim?", "yana qanday yo'l bo'lishi mumkin edi?", "qaysi fikrimni o'zgartirgan bo'lardim?" degan savollar orqali qaytadi. Shu sababli refleksiya tizimning yakuniy emas, keyingi ijodiy siklni boshlaydigan mexanizm sifatida qaraladi.

Raqamli vositalarning tizimdagi o'rni

Raqamli texnologiyalar mazkur tizimda maqsad emas, ijodiy faoliyatni kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bu yerda asosiy farq "talaba texnologiyani ishlata oladimi?" degan savolda emas, "u texnologiya yordamida qanday yangi pedagogik yechim yaratmoqda?" degan savolda namoyon bo'ladi.

Masalan, talaba oddiy taqdimot tayyorlashi raqamli kompetensiyaning boshlang'ich darajasi bo'lishi mumkin. Ammo undan bir mavzu uchun uch xil o'quvchi guruhiga mos interaktiv topshiriq ishlab chiqish, vizual material yaratish, o'quvchining xatosidan kelib chiqib yangi topshiriq loyihalash yoki sun'iy intellekt yaratgan materialni tahlil qilib, uning pedagogik kamchiliklarini tuzatish talab qilinsa, raqamli vosita ijodiy tafakkur rivojiga xizmat qila boshlaydi.

Bu yondashuv UNESCOning 2024-yilgi o'qituvchilar uchun AI kompetensiyalari frameworki bilan hamohangdir. Unda o'qituvchilar kompetensiyasi "egallash-chuqurlashtirish-yaratish" bosqichlarida qaralib, AI pedagogikasini oddiy foydalanishdan pedagogik transformatsiyagacha olib borish taklif etilgan^[1]. Demak, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi uchun ham raqamli vositadan foydalanishning eng yuqori bosqichi tayyor kontentni olish emas, yangi pedagogik mahsulot yaratish bo'lishi kerak.

Amaldagi holat va uning tahlili

Amaldagi holatga qaralganda, O'zbekistonda zarur normativ va tashkiliy asoslarning sezilarli qismi allaqachon shakllangan. Milliy dasturda kompetensiyaga asoslangan zamonaviy metodikalarni joriy etish, pedagogika yo'nalishlari dasturlarini takomillashtirish va amaliyot bilan bog'lash belgilangan^[7]. "O'zbekiston-2030" strategiyasi esa pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, yangi avlod o'quv resurslari, oliy ta'lim dasturlarining xalqaro integratsiyasi va ta'lim sifatini oshirishni strategik maqsad sifatida belgilaydi^[8]. 2026-yilgi oliy ta'lim standarti esa boshlang'ich ta'lim yo'nalishini zamonaviy va istiqboldagi ehtiyojlar, innovatsion texnologiyalar hamda mehnat bozori talablari bilan bog'laydi^[9].

Bundan tashqari, 2025-yilda UNESCO va O'zbekiston Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi o'qituvchilar ta'limini takomillashtirishga qaratilgan to'rt yillik, 6,5 million AQSh dollari miqdoridagi SMART-ED tashabbusini boshlagan. Unda aynan bo'lajak o'qituvchilar uchun universitet o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, maktab



amaliyotini kuchaytirish, yangi fan yo'nalishlarini joriy etish, o'qitish metodlarini takomillashtirish va innovatsion amaliyot hamda resurslarni almashish tizimini yaratish ko'zda tutilgan ^[10]. Bu jarayon biz taklif qilayotgan tizimning amaliy jihatdan ham o'z vaqtida ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, muammo "O'zbekistonda kreativ metodlar umuman qo'llanilmaydi" degan xulosada emas. Aksincha, so'nggi mahalliy tadqiqotlarda bu yo'nalishga e'tibor ancha kuchaygan. Masalan, Turopovning 2025-yildagi tadqiqotida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmuni va innovatsion metodlar tahlil qilingan ^[14].

2026-yilda Shomurodova va Isroilova bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, interfaol metodlar va refleksiv yondashuv asosida rivojlantirish masalasini ko'rib chiqqan ^[13]. Muxammadiyevaning 2026-yildagi ishida esa nostandart topshiriqlarning bo'lajak o'qituvchilar kreativ tafakkurini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan ^[15].

Mamedovanning tadqiqotida esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatida pedagogik-psixologik jarayonlar va kreativ metodlarning o'rni ko'rsatilgan ^[16].

Yuqordag ko'rilgan ishlarni birgalikda tahlil qilganda muhim jihat ko'zga tashlanadi: mahalliy ilmiy maydonda kreativlikning alohida komponentlari, metodlari va topshiriqlari bo'yicha izlanishlar mavjud, biroq ularni yagona tizimga birlashtirish masalasi hali ham dolzarb. Bir tadqiqot nostandart topshiriqqa, ikkinchisi innovatsion metodlarga, uchinchisi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarga urg'u beradi. Bizning yondashuvimizda esa bu elementlar alohida-alohida emas, balki bitta pedagogik mexanizmning ketma-ket bo'g'inlari sifatida qaraladi.

Bu yerda yana bir muhim ilmiy munozara mavjud. Kreativlikni rivojlantirish uchun "ko'proq kreativ metod ishlatish" yetarlimi? OECD ma'lumotlari bunday sodda yondashuvni qo'llab-quvvatlamaydi. Tizim darajasi-dagi tahlilda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida o'quv dasturining haddan tashqari zichligi, kreativlikka baholashda yetarli e'tibor berilmasligi va o'qituvchilar tayyorgarligi yoki metodik resurslarning yetishmasligi ko'rsatilgan ^[11]. Demak, muammoni faqat "yangi metod topish" bilan hal qilib bo'lmaydi. Maqsad, mazmun, pedagogik faoliyat va baholash bir-biriga moslashtirilishi kerak.

Shu asosda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning taklif etilayotgan innovatsion-pedagogik tizimi quyidagi tamoyilga tayanadi: talabaga ijodiy fikrlash haqida gapirish emas, uni har bir pedagogik vazifani bajarish jarayonida ijodiy fikrlashga majbur qiladigan ta'lim muhitini yaratish. Bunda topshiriqning o'zi bir nechta yechimga ega bo'ladi, talaba o'z variantini asoslaydi, boshqa variantlarni ko'rib chiqadi, yechimini sinaydi va qayta takomillashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish bugungi ta'limda alohida metodik vazifa emas, balki kelajak pedagogining kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim kompetensiyalardan biridir. Tadqiqotda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning maqsadli, mazmuniy, texnologik, raqamli, refleksiv va diagnostik komponentlardan tashkil topgan innovatsion-pedagogik tizimi asoslandi. Tizimning asosiy mexanizmi "muammo – g'oya – yechim – sinov – baholash – takomillashtirish" ketma-ketligiga qurilib, talabani tayyor javobni o'zlashtirishidan ko'ra, mustaqil pedagogik yechim yaratishiga yo'naltiriladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ metodlarning alohida qo'llanilishi yetarli emas; ularni pedagogik maqsad, mazmun, amaliy faoliyat va refleksiya bilan yagona tizimga birlashtirish zarur. Shu jihatdan taklif etilayotgan yondashuv bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini nafaqat mavjud ta'lim sharoitiga, balki raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tobora kuchayib borayotgan kelajak ta'lim muhitiga moslashuvchan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan pedagog sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Miao F., Cukurova M. AI Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO, 2024.
2. OECD. PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools. Paris: OECD Publishing, 2024. DOI: 10.1787/765ee8c2-en.
3. OECD. PISA 2022 Results (Volume III) – Factsheets: Uzbekistan. Paris: OECD, 2024.
4. OECD. How are education systems integrating creative thinking in schools? PISA in Focus, No. 122. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/f01158fb-en.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son. Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni. 2022-yil 11-may.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
8. UNESCO, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. O'zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlash va kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha SMART-ED tashabbusi. 2025.



9. Turotova M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmuni. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya, 2025, 4(3), 44–47.
10. Shomurodova S., Isroilova F. Innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish. Yangi Renessans, 2026, 3(1), 84–85.
11. Mamedova M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik va psixologik jarayonlar. Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025, 3(10). DOI: 10.5281/zenodo.17375349.
12. Muxammadiyeva D. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi. Maktabgacha va maktab ta'limi, 2026, 4(5). DOI: 10.5281/zenodo.20503619.
13. Guilford J.P. Creativity. American Psychologist, 1950, 5(9), 444–454.
14. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Personnel Press, 1974.
15. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in the Adolescent. Soviet Psychology, 1990, 28(1), 84–96.
16. Begimqulov U.Sh. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 2007.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.